

ARAB TILI FE'L MORFOLOGIK QOLIPLARIDAGI O'ZGARISHLAR

**Omonova Shahnoza Shavkatovna**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
Magistratura "Lingvistika (arab tili)" yo'nalishi  
1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Barcha tilshunosliklarda kuzatilgani kabi arab tilshunosligida ham til tadqiqiga yondashuvlar o'zgardi. Arab tili birliklarining nutqda yuzaga chiqadigan semantik, pragmatik xususiyatlarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, arab tili morfologik qoliplari orqali nutqda namoyon bo'ladigan semantik o'zgachaliklarni aniqlash, ularni matnning semantik-sintaktik strukturasi xususiyatlari bilan bog'liqlikda o'rganish muhim bo'lib, ushbu muammo tilshunoslikning dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ushbu maqolada arab tilida fe'l morfologik qoliplaridagi o'zgarish haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *qolip, fe'l hosilalari, qiroat, sintaktik dilemma.*

Arab tilida fe'llarning har bir morfologik qolipi orqali muayyan semantikaga ega morfologik shakllar voqelanadi. Morfologik qoliplarning mohiyatini belgilashda ular orqali voqelangan hosilalarni o'rganish ahamiyatlidir.

Arab tili grammatikasiga oid manbalarda fe'llarning hosilalariga berilgan ta'rifga nazar tashlaymiz: tilshunos olimi Farro o'zining "Qur'on ma'nolari" kitobida Hud surasi 69-oyatidagi (فَمَا لَبِثَ أَنْ جَاءَ بِعِجْلٍ حَنِيذٍ) "Va ko'p o'tmay qovurilgan buzoq keltirdi" deya tarjima qilinib, حَنِيذٍ (haniiz- qovurilgan) so'zi yerga chuqurcha qazilib, usti yopilgan holda pishirilgan degan ma'noni bildiradi. Aslida فعيل qolipi emas, محنوذ ya'ni مفعول shaklida kelishi kerak edi. Bir qolipning boshqasi o'rnida qo'llanilishi مطبوخ ga طبيخ va مقتول ga قتيل so'zlarida ham kuzatiladi deya fikrini asosalagan<sup>21</sup>.

Ko'rinadiki, ushbu ta'rifning birinchi qismida qolipning vazifasi haqida gap ketgan. Ikkinchi qismida esa bu qolip orqali boshqa ma'noni ifodalovchi birlik voqelanligi ko'rsatilib, uning semantikasiga urg'u berilgan. Ushbu qolip "shu ma'no"da kelganligi qayd etilgan.

Bizningcha, bu o'rinda aslida morfologik qolipni «shu ma'noda kelgan» deyish unchalik to'g'ri bo'lmaydi, aksincha, u orqali "فعليل" umumiy grammatik ma'no emas, balki boshqa ma'no voqelangan

الفراء، أبو زكريا يحيى بن زياد بن عبدالله بن منظور الديلمي (ت 207هـ). معاني القرآن، تحقيق: يوسف نجاتي للجزء الأول، محمد علي النجار للجزء الأول والثاني، عبدالفتاح شلبي وعلي النجدي ناصف للجزء الثالث، دار الكتب المصرية، الطبعة الثالثة، 1422هـ=2002م. 3/، 103، 2/21. 3/، 101

deyish o'rinlidir. Chunki fe'llarning morfologik qoliplari ongda tayyor holda mavjud, u semantikadan xoli ruhiy-mental birlik sanaladi. U orqali nutqda turli semantikaga ega harakat-holat bildiruvchi fe'llar, ba'zan ot, sifat kabi ismlarning voqelanishi ushbu morfologik qolipning nutqiy imkoniyatlari sanaladi. Bu imkoniyat faqat ma'lum nutqiy vaziyatdagina yuzaga chiqadi. Fe'llarning morfologik qolipi orqali turli semantik xususiyatga ega nutqiy birliklarning voqelanishiga til egalarining kommunikativ maqsadi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan fe'llarning morfologik qoliplarini hosillar orqali o'rganish maqsadga muvofiq. Masalan:

Axfash ham "Qur'on ma'nolari" kitobida Hud surasining 43-oyatida ( قَالَ لَا عَاصِمَ الْيَوْمَ مِنْ أَمْرِ اللَّهِ إِلَّا مَنْ رَجِمَ ) "U esa "Bugun Allohning amridan saqlovchi yo'qdir " oyatidagi عَاصِمَ so'zi (saqlovchi) عصمة yoki لا معصوم ma'nosida kelgan va فاعل qolipi مفعول ma'nosida ishlatilganligi ta'kidlaydi<sup>22</sup>.

Ushbu misolda fe'llning "فاعل" qolipi orqali uning umumiy grammatik ma'nosidan boshqa ma'noni ifodalovchi birlik voqelangan. Bunda til egasining kommunikativ maqsadi muhim o'rin tutgan.

Qadim davr tilshunoslari ham muayayn morfologik qolip orqali turli semantik mohiyatga ega birliklar voqelanishi hodisasini e'tibordan chetda qoldirmaganlar. Bir morfologik qolipning o'z ma'nosidan boshqa ma'noga dalolat qilishiga ahamiyat qaratib, kitoblarida alohida boblar ajratishgan. Nafaqat tilshunos, balki Qur'on mufassirlari ham bu hodisaga chuqur yondashib, Qur'oni karim qiroatlaridagi xilma-xillikni ko'rsatish va uning matnida kelgan bu qarama-qarshi ixtilofli o'rinlar sababini ochib berishga harakat qilishgan.

Tilshunoslar bu hodisaga ikki xil yondashadilar:

1) morfologik qolip o'z bobidab chiqib, ma'nosini ifodalayotgan shakl bobiga o'tadi;

2) garchi qolip o'zga ma'noni ifodalasada, u o'z bobida qoladi.

Matn ichida morfologik shaklning ma'nosini aniqlash jihatidan nazar tashlansa, birinchi qarash o'rinli bo'lishi mumkin. Kontekst ichidagi nutqiy qurshov holati ma'noni ochib beruvchi hisoblanib, صِيغُ الْمُبَالَغَةِ (sig'otul mubalag'a – bo'rttirma-kuchaytirma sifat vaznlari) va الصفة المشبهة (sifa mushabbaha – vasflovchi sifat, Olloh taolo vasfiga ishlatiladigan vazn) aniq nisbat sifatdoshi (ismi foil) vazifasida kelganida, birinchisi bajaruvchi holatidagi mubolag'aga ishora qilsa, ikkinchisi sobitlikni bildiradi va ularning har ikkisi ish- harakatni bajaruvchiga dalolat qiladi. Biroq shu

الفراء، أبو زكريا يحيى بن زياد بن عبدالله بن منظور الديلمي (ت 207هـ). معاني القرآن، تحقيق: يوسف نجاتي للجزء الأول، محمد علي النجار للجزء الثاني، عبدالفتاح شلبي وعلي النجدي ناصف للجزء الثالث، دار الكتب المصرية، الطبعة الثالثة، 1422هـ=2002م. 3/، 101، 3/، 103، 2/، 21.

ko'pma'nolilik kontekstdan tashqarida ham hosil bo'lishi mumkin. Agar qoliplarga yakka holda nazar tashlaydigan bo'lsak, matn ichida ko'p ma'nolilikni anglash qiyinlashadi. Tammam Hassan aytganidek,

"فالمبنى الواحد متعدد المعنى ومحتمل كل معنى مما نسب إليه وهو خارج السياق، فإذا تحقق المبنى بعلامة في سياق فإن العلامة لا تفيد إلا معنى واحداً تحده القرائن اللفظية والمعنوية والحالية"

"Bir qolip ko'p ma'noni bildiruvchi bo'lishi mumkin va u tashuvchi ma'noning har biri nimaga nisbat berilgaligini matndan tashqari holda imkoniyat tarzida mavjud. Agar qolip matn ichidagi biror belgi orqali yuzaga chiqqan bo'lsa, o'sha belgi ma'naviy va lafziy ishora va holat orqali bir ma'noni chegaralab beradi".<sup>23</sup>

Bunga dalil o'laroq ilohiy Zotni vasf qiluvchi morfologik qoliplar ( فعيل، فعول va hkz.) faqat davomiylik va sobitlikni aks ettiradi. Aniq nisbat sifat doshi hisoblangan va ish-harakatning sodir bo'lishida yangilanishni bildiruvchi ismi foil bobida kelgan barcha qoliplar, Alloh taologa nisbat berilganda o'z bobidan chiqadi va «sifa mushabbaha» bobiga o'tadi. Masalan, عالم so'zi va أفعل qolipida kelgan ba'zi so'zlarni orttirma nisbat sifatlariga qatoriga qo'sha olmaymiz, chunki orttirma daraja sifatlarida taqqoslash ma'nosi bor va bu nisbat Alloh taologa qo'llanilmaydi. الأول والآخر sifatlar ham matn ichida orttirma nisbat sifat doshi bobiga tegishli deb e'tibor qilinishi mumkin emas.

Kontekst qolipning boshqa bir qolip ma'nosida qo'llanishini va o'z bobidan chiqqanligini ta'kidlash bilan bir qatorda ma'no turlicha bo'lgani bilan u o'z bobida qolganligini isbotlash uchun ham yordam beradi. Bu o'rinda Qur'oni karim qiroatidagi xilma-xillik qolip shaklidagi ixtiloflarga sabab bo'lgan va bundan tashqari bu ixtilofga berilgan sharhlar konteks me'yorida kelib chiqqan. Tadqiqotchi darslik kitoblarida qiroat sababidan fe'ning otga aylanishi tufayli vazifasini o'zgartirgan turli qoliplarga va matn ichida bir shaklda kelib turlicha talqin qilinishi mumkin shakllarga duch kelishi mumkin.

### Fe'l va ot o'rtasidagi almashinuv.

Moida surasida kelgan عبد so'zi misolini tahlil qilamiz.

قُلْ هَلْ أُنَبِّئُكُمْ بِشَرِّ مِّنْ ذَلِكَ مُتُوبَةً عِنْدَ اللَّهِ مَن لَّعَنَهُ اللَّهُ وَغَضِبَ عَلَيْهِ وَجَعَلَ مِنْهُمْ الْقِرَدَةَ وَالْخَنَازِيرَ وَعَبَدَ الطَّاغُوتِ أُولَئِكَ شَرٌّ مَّكَانًا وَأَضَلُّ عَن سَوَاءِ السَّبِيلِ. المائدة:60.

عَبَدَ\_so'zi د (dal) va ب (baa) harflarini fatha harakati bilan fe'llik va nominallik xususiyatiga ko'ra o'qiladi va الطَّاغُوتِ so'zidagi ت (taa) harfi ish harakat uning ustida bajarilganligi e'tiboridan fatha bilan o'qiladi. Ba'zilar undagi ع (ayn) harfini fatha va ب (baa) harfini damma harakati

<sup>23</sup>تمام حسان: اللغة العربية مبناها ومعناها، ص165



kabi hamda ma'nosi "Va ular orasida tog'utning quli qilib qo'ydi"ga teng bo'ladi xuddi "Zaydni o'zingga birodar qilding" ya'ni uni o'zingga nisbat berding deyiladi. وَعَبْدُ الطَّاعُوتِ deb ayn harfini fatha harakati va baa harfinidamma harakati bilan o'qisa ism فَعْلٌ qolipida kelgan bo'ladi xuddi زَيْدٌ degandek yoki رَجُلٌ حَذْرٌ degandek حَذْرٌ ning ma'nosi حَذْرٌning mubolag'ali shakli hisoblanadi, عَبْدٌ esa shaytonning toatida mubolag'ali darajada kuchli ekanini bildiradi. So'z bir shaklda bo'lsa ham ko'plik ma'nosiga dalolat qiladi go'yo مَنكُمُ الْعَصَا deb مَنكُمُ الْعَصَا murod qilingani kabi. Demak bu 3 jihatdan so'ng وَعَبْدُ الطَّاعُوتِ rof' holatida وَعَبْدٌ va الطَّاعُوتِ shakllarida kelishi mumkin ekan lekin bu ikki shaklda joiz bo'lsa-da o'qilmagani ma'qul chunki qiroat joiz varyantlar asosiga emas, o'zidan oldingilar yo'liga ergashishdir.

وَعَبْدُ الطَّاعُوتِ va وَعَبْدُ الطَّاعُوتِ holatida bosh kelishikda kelishi joiz bo'ladi chunki ma'no tahqirlash semasini tashiydi. Moida surasining 60-oyatida "قُلْ هَلْ أُنَبِّئُكُمْ بِشَرٍّ مِّنْ ذَلِكَ مُنُوبَةً عِنْدَ اللَّهِ مَنْ لَعَنَهُ اللَّهُ وَغَضِبَ عَلَيْهِ وَجَعَلَ مِنْهُمْ الْفِرْدَةَ وَالْخَنَازِيرَ وَعَبَدَ الطَّاغُوتِ أُولَئِكَ شَرٌّ مَّكَانًا وَأَضَلُّ عَن سَوَاءِ السَّبِيلِ"

so'z ularning shaytonlarga tobeligiga dalolat qiladi وَعَبْدُ الطَّاعُوتِ deb o'qilgan va tepadagi وَمَنْ لَعَنَهُ اللَّهُ، وَغَضِبَ عَلَيْهِ kelishikda deb qaralsa, وَعَبْدُ الطَّاعُوتِ, وَعَبْدُ الطَّاعُوتِ, وَعَبْدُ deb o'qilgan va gapda shaklida baa harfini sukunli holatda va daalni fatha harakati bilan o'qish mumkin va bu ikki sababdan bo'ladi: birinchisi وَعَبْدٌ so'zidagi damma talaffuzga og'irligi tufayli sukun yengil deb almashtirilgan bo'lishi mumkin xuddi وَعَضُدٌ وَعَضُدٌ kabi. Shuningdek, وَعَبْدٌ jinsga dalolat qiluvchi bir so'z sifatida ham ishlatilishi mumkin. وَعَبْدٌ bosh kelishik va tushum kelishigida ham ikki omil tufayli kelishi mumkin xuddi وَعَبْدٌ so'zini vasf qilganimiz kabi. Tushum kelishigida ikki sabab tufayli keladi: biri وَمَنْ لَعَنَهُ اللَّهُ وَمَنْ لَعَنَهُ اللَّهُ kelishigida qo'llanilib, jumlasida tahqir uslubida kelgani sababli tushum kelishigida qo'llanilib, وَمَنْ لَعَنَهُ اللَّهُ kelishigida ham qaratqich shakllarida ham qaratqich kelishigida وَمَنْ لَعَنَهُ اللَّهُ so'zi o'rniga kelishi mumkin va bunda ma'no وَمَنْ لَعَنَهُ اللَّهُ bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan varyantlar bilan qiroat qilishda eng ishonchlisi bu وَمَنْ لَعَنَهُ اللَّهُ shakli bo'lib undan وَمَنْ لَعَنَهُ اللَّهُ va وَمَنْ لَعَنَهُ اللَّهُ shakllari rivoyatda keltirilgan va qorilar tomonidan qiroat qilingan"<sup>25</sup>.

Demak, ushbu tahlil orqali quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

Birinchidan, arab tilidagi morfologik qoliplar qo'llanish jihatidan arab tili morfologiyasida muhim ahamiyatga ega. Ulardagi shakliy o'zgarish va semantik o'zgachalik ma'lum sababga asoslanib yuzaga kelishi aniqlandi.

الزجاج، أبو إسحاق إبراهيم بن السّري (ت311ه). معاني القرآن وإعرابه، تحقيق: عبد الجليل عبده شلبي-دار الحديث-القاهرة-1426ه=2005م<sup>25</sup> ص152، 2/153

Ikkinchidan, morfologik qoliplar anglatgan ma'nosiga ko'ra matn ichida almashib qo'llana oladi va bu qo'llanish ma'lum maqsad asosida yuzaga keladi.

Uchinchidan, so'zlarning shaklidagi o'zgarish ma'noda ham aks etadi, chunki har bir qo'shilgan shakl va yuz bergan o'zgarish ma'noga ta'sir o'tkazadi. Bundan tashqari ba'zi qoliplar mavjudki, ular matndan tashqari holda o'zlarining mustaqil ma'nosiga ega bo'ladi va qiyosga ko'ra yasaladi, ba'zilari o'z mustaqil ma'nosiga ega ammo qiyos asosida yasalmaydi va matn ichida ma'no anglatuvchi qoliplarga bo'linadi.

To'rtinchidan, bir shakl ikkinchi shakl o'rnida ishlatilishi so'zlovchining maqsadi yoki semantik o'zgachalik, ma'nodagi chigallik, sintaktik dilemma (ikki tanlovdan har ikkisi asosli bo'lgan holat), she'rdagi vaznni saqlash kabi sabablar tufayli yuzaga kelishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. الزجاجي: اشتقاق الأسماء الحسنی، ص26، 27، ورأی المازني في (مجالس العلماء) لأبي القاسم عبدالرحمن بن إسحاق الزجاجي (ت 340هـ): تحقيق: عبدالسلام هارون: مطبوعات وزارة الإعلام الكويتية، ضمن سلسلة التراث العربي، 1984، ص69
2. الفيروز آبادي: القاموس المحيط، مجلد واحد، مؤسسة الرسالة، الطبعة الثانية، 1987م، باب الهاء فصل الهمة ص1603
3. محمد بن عبد الله، ابن مالك الطائي الجبائي، أبو عبد الله، جمال الدين (المتوفى: 672هـ). شرح 12. تسهيل الفوائد المحقق: د. عبد الرحمن السيد، د. محمد بدوي المختون - الناشر: هجر للطباعة والنشر والتوزيع، الطبعة: الأولى (1410هـ - 1990م): 1/ص810
4. أبو زكريا يحيى بن زياد بن عبد الله بن منظور الديلمي الفراء (المتوفى: 207هـ) (معاني القرآن) المحقق: أحمد يوسف النجاتي / محمد علي النجار / عبد الفتاح إسماعيل الشلبي - الناشر: دار المصرية للتأليف والترجمة - مصر الطبعة: الأولى، 3/ص291
5. الفراء: معاني القرآن، 1/ص373، 374، والرضي: شرح الشافية، 3/ص134، وينظر، الفيومي: المصباح المنير، كتاب الصاد مادة (صوب)، ص 210، وكتاب العين مادة (عيش)، ص 261، وكتاب الميم مادة (مدن)، ص 336
6. الزجاج، أبو إسحاق إبراهيم بن السّري (ت 311هـ). معاني القرآن وإعرابه، تحقيق: عبد الجليل عبده شلبي-دار الحديث-القاهرة-1426هـ=2005م
7. النحاس: أبو جعفر أحمد بن محمد بن محمد بن إسماعيل النحاس (ت 338هـ). إعراب القرآن، تحقيق: زهير غازي، عالم الكتب- بيروت 1409هـ=1988م
8. طه محمد الجندي (دكتور) التناوب الدلالي بين صيغ الوصف العامل، القاهرة، 1998م
9. الطيب البكوش(دكتور). التصريف العربي من خلال علم الأصوات الحديث، تونس، الطبعة الثالثة. 24. 1992م
10. Абдужабборов А. Араб тили. – Т.: Тошкент ислом университети, 2007. –327 б.

11. Халидов Б.З. Учебник арабского языка. – Ташкент: Учитель, 1977. –344 с